



XALQ DEPUTATLARI YUQORI CHIRCHIQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 13 - aprel

VI-46-29-10-145-K/22

Yuqorichirchiq tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan jamoatchilik fikri asosida shakllangan va ovoz berish yakuniga ko‘ra “g‘olib” takliflarni tanlab olish hamda ularga mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PK-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini tizimli ravishda tashkil kilib borish zarurligi va yuqoridagi qarorlardan kelib chiqqan holda, Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Yuqori Chirchiq tuman bo‘yicha 2022-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha Manzilli ro‘yhat ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Komissiya a‘zolari o‘z hulosalariga asosan, Moliya Vazirligining 2021-yil 6-sentyabrdagi WV82767631-sonli xatining ilovasiga muvofiq “Tuman va

shaharlarda fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar asosida g‘oliblarni aniqlash” bo‘yicha berilgan qo‘llanma talablariga muvofiq, eng ko‘p ovoz olgan, 6 ta takliflar;

Jumladan;

1-taklif **7 351 ta** ovoz to‘plagan, (ID:1920400312), Jalol tepa mahallasi Mamut qishlog‘i, Zargar-2, Zargar-3, Zargar-4, Zargar-5 tor ko‘chalariga 1,5 km asfalt yotqizish taklifi. Taklif qiymati **650,0 mln.so‘m**,

2-taklif **6 135 ta** ovoz to‘plagan, (ID:1920400335) Jaloltepa mahallasidagi ichki ko‘chalariga Dilxush, Fidoiylar, Yangi hayot ko‘chalariga 2 km asfalt yotqizish taklifi. Taklif qiymati **1 000,0 mln.so‘m**,

3-taklif **4 092 ta** ovoz to‘plagan, (ID:1920400206) Darxon mahallasidagi 12 maktab sport zalini tamirlash taklifi. Taklif qiymati **956,0 mln.so‘m**,

4-taklif **3 755 ta** ovoz to‘plagan, (ID:1920400252) Toshto‘g‘iziq MFY, Bog‘iston va Barkamol ko‘chalariga 2 km asfalt yotqizish taklifi. Taklif qiymati **990,0 mln.so‘m**,

5-taklif **3 423 ta** ovoz to‘plagan (ID:1920400410) Jumabozor MFY. Sharafshon ko‘chasi ya‘ni davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotiga kiruvchi ko‘chaga 1,5 km. asfalt yotqizish taklifi. Taklif qiymati **750,0 mln.so‘m**,

6-taklif **2 295 ta** ovoz to‘plagan (ID:1920400064) Jumabozor MFY 26 maktabda zamonaviy ochiq sport maydonchasi qurish taklifi. Taklif qiymati **500,0 mln.so‘m** hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi "Tuman va shahar budjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida"gi PQ-197-sonli qaroriga asosan qo‘shimcha ravishda respublika budjeti mablag‘lari hisobidan **2 288 ta** ovoz to‘plagan, taklifning umumiy qiymati **1 070,0 mln.so‘m** bo‘lgan (ID:1920400144) Yangixayot MFY Mexribon ko‘chasini **8 800,0 metr kv.** qismini asfalt yotqizish takliflari g‘olib deb topilsin.

Tuman bo‘yicha jami g‘olib deb topilgan 7 ta umumiy qiymati **5 916,0 mln.so‘m** bo‘lgan takliflar tasdiqlangan manzilli ro‘yxati ijro uchun qabul qilinsin va talab etiladigan mablag‘ belgilangan tartibda yo‘naltirilishi belgilansin.

4. Tasdiqlangan manzilli ro‘yxat asosida:

- tuman hokimligi (A.Tastanbekov, A.Karimov), tuman Moliya bo‘limi (B.Ibragimov) va tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (A.Mirzakulov) ushbu qarorga muvofiq “g‘olib” deb topilgan takliflarni moliyalashtirishni ta‘minlash maqsadida, jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotda ochilgan maxsus hisob raqamiga mablag‘lar yo‘naltirilsin.

Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar

bo'yicha Xalk deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari (A.Karimov) buyurtmachi tashkilotlar bilan birgalikda, belgilangan tartibda qurilish va ta'mirlashga oid tender tanlovlarini tezkorlikda odilona o'tkazilishini tashkillashtirsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish, Xalk deputatlari Toshkent viloyati Yuqori Chirchik tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy isloxlarni amalga oshirish tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Tastanbekov) zimmalariga yuklansin.

7. Ushbu karor kabul kilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi



U.Atemov

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tuman Kengashining
2022 yil 13 apreldagi
VI-46-29-10-145-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Yuqori Chirchiq tumani bo'yicha 2022 yilda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
MANZILLI RO'YXAT**

ming so'mda

| № | G'olib taklif ma'lumotlari | | | Amalga oshirishning aniqlangan qiymati | Xaqiqatda ajratilgan | Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, Byudjet parametri) | Buyurtmachi tashkilot |
|--|----------------------------|--|-------------------------|--|----------------------|---|------------------------------------|
| | Taklif ID raqami | Qisqacha mazmuni | To'plagan ovozlari soni | | | | |
| Tashabbus jamg'armasida shakllangan mablag' | | | | | | x | x |
| 1 | 1920400312 | Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, Jaloltepa mahallasi Mamut qishlog'i, Zargar-2, Zargar-3, Zargar-4, Zargar-5 tor ko'chalariga 1,5 km asfalt yotqizish kerak | 7 351,0 | 650,0 | 650,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 2 | 1920400335 | Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani Jaloltepa mahallasidagi ichki ko'chalariga Dilxush, Fidoylar, Yangi xayot ko'chalariga 2 km asfalt yotqizish kerak, yo'llar tamir talab bo'lib ketgan, yomg'irda yurib bo'lmaydi! | 6 135,0 | 1 000,0 | 1 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 3 | 1920400206 | Darxan mahallasidagi 12 maktab sport zalini tamirlash | 4 092,0 | 956,0 | 956,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman xalq ta'limi bo'limi |
| 4 | 1920400252 | "Toshto'g'izoq" MFY, Bog'iston va Barkamol ko'chalari 2 km asfalt qilish, | 3 755,0 | 990,0 | 990,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 5 | 1920400410 | Assalamu alaykum, Jumabozor MFY Sharafshon ko'chasi yani davlat maktabgacha ta'lim markaziga kiruvchi ko'chaga 1,5 km, (1500m) asfalt yotqizish | 3 423,0 | 750,0 | 750,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi |

| | | | | | | | |
|---|------------|---|---------|-------|------------------|----------------------------------|------------------------------------|
| 6 | 1920400064 | Yuqori Chirchiq tumani, Jumabozor M.F.Y. 26-maktabda zamonaviy ochiq sport maydonchasi qurish | 2 295,0 | 500,0 | 500,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman xalq ta'limi |
| 7 | 1920400144 | MFY Yangixayot Mexribon kuchasini Manzilli dasturiga kiritilmagan 2 km 200 metr (8800metr kvadrat) kismini asfalt bilan koplash. Rasmda kursatilgan ko'chamizning bir qismidagi soyni to'ldirib ko'tarish. Sababi: yog'ingarchilik vaqtida axoli va transportlar tushib chiqishga qiynalishadi. | 2288 | 1070 | 1070 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi |
| G'olib takliflarga jami ajratilgan mablag' | | | | | 5 916,000 | x | x |
| Taqsimlanmagan mablag' | | | | | 10 | x | x |